

Nizom (*Aviamodel musobaqasi*)

Musobaqa maqsadi

- 1.1. Yoshlarni Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash;
- 1.2. Talaba-yoshlarni Aviamodel va Raketomodel sportiga jalb qilish orqali nazariy bilimlarini amalda qo'llashga va bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishga sharoit yaratib berish;
- 1.3. Talaba-yoshlarni Aviatsiya va Kosmonavtika sohasi hamda Aviamodel va Raketomodel sport turlari bilan tanishtirish;
- 1.4. Iqtidorli talaba-yoshlarni tanlab, O'zbekiston chempionatlarida, Kuboklarida, Osiyo va Halqaro musobaqalarda ishtirok etishiga tayyorlash;
- 1.5. Talaba-yoshlarni bolalar yozgi dam olish oromgohlarida boshlang'ich texnik modellashtirish to'garak rahbarlari sifatida tayyorlash va bolalar dam olish oromgohlariga tavsiya etish.

Umumiy qoidalar

- 2.1. "Aviamodel" tanlovi (keyingi o'rinlarda – tanlov) texnik ijodkorlik va aviatsiya sohasida muhandislikka qiziquvchi ishtirokchilar o'rtasida o'tkaziladi.
- 2.2. Tanlovning maqsadi – modellashtirish sohasida innovatsion yondashuvlarni rivojlantirish, texnik bilim va amaliy ko'nikmalarni oshirish.
- 2.3. Tanlovda ishtirok etish ixtiyoriy bo'lib, har qanday havaskorlar, talabalar va mutaxassislar qatnashishi mumkin.
- 2.4. Tanlov jamoaviy yoki yakka tartibdagi ishtirok etish asosida o'tkaziladi.

Tanlovni tashkil etish va o'tkazish tartibi

- 3.1. Tanlov belgilangan muddatda o'tkaziladi va quyidagi bosqichlardan iborat bo'ladi:
 - Arizalarni qabul qilish;
 - Loyihalarni texnik ekspertiza qilish;
 - Taqdimot va baholash jarayoni;
 - G'oliblarni e'lon qilish va taqdirlash.
- 3.2. Tanlov ishtirokchilari tayyor modellarni taqdim etadilar va ularning texnik hujjatlarini taqdim qilishlari lozim.
- 3.3. Tanlov komissiyasi ishtirokchilar modellarini baholash mezonlari asosida baholaydi.

Tanlovda qatnashish shartlari

- 4.1. Tanlovda qatnashish uchun model quyidagi talablarga javob berishi kerak:
 - Aerodinamik jihatdan to'g'ri konstruksiyaga ega bo'lishi;

- Mustahkam va texnologik jihatdan puxta ishlangan bo'lishi;
- Innovatsion yechimlarga asoslangan bo'lishi;
- Boshqa modellardan aslligi va funksional jihatdan farqlanishi;
- Elektronika, avtomatlashtirish yoki mexanik tizimlardan foydalanilgan bo'lishi (ixtiyoriy).

4.2. Har bir ishtirokchi o'z modeli uchun texnik hujjatlar va taqdimot materiallarini tayyorlashi shart.

Mukofotlar va taqdirlash

5.1. Tanlov g'oliblari diplom va esdalik sovg'alari bilan taqdirlanadi.

5.2. Qo'shimcha nominatsiyalar tashkilotchilar tomonidan belgilanishi mumkin (masalan, "Eng yaxshi innovatsion yechim", "Eng original model" va h.k.).

5.3. Tanlovda faol ishtirok etgan barcha qatnashchilarga sertifikatlar taqdim etiladi.

7. Yakuniy qoidalar

5.1. Tanlov tashkilotchilari baholash natijalarini qayta ko'rib chiqish huquqiga ega emaslar.

5.2. Tanlovga taqdim etilgan modellar va hujjatlar ishtirokchilar tomonidan tayyorlangan bo'lishi kerak, plagiat yoki boshqa shaxslarning ishlarini taqdim etish man etiladi.

5.3. Tashkilotchilar tanlovni o'tkazish formati va talablarini o'zgartirish huquqini saqlab qoladilar.

Musobqa ishtirokchilarini baholash me'zoni
(Aviamodel musobaqasi)

№	Baholash mezonining nomlanishi	Ball	Natija
1.	Konstruktiv va dizayn	30	
	<i>Modelning orginalligi va innovatsiyaligi</i>	<i>10</i>	
	<i>Aerodinamik shaklning optimalligi</i>	<i>10</i>	
	<i>Konstruksiyaning mustahkamligi va yengilligi</i>	<i>10</i>	
2.	Texnik yechimlar va mexanizmlar	30	
	<i>Qo'llanilgan materiallar va ularning sifat darajasi</i>	<i>10</i>	
	<i>Avtomatlashtirish va texnologik yechimlar</i>	<i>10</i>	
	<i>Qo'shimcha mexanizmlar va ularning ishonchliligi (harkatlanuvchi qismlar, stabilizatorlar, elektronika)</i>	<i>10</i>	
3.	Innovatsiya va texnik yangiliklar	20	
	<i>Yangi texnologiyalarni qo'llash</i>	<i>10</i>	
	<i>Texnik muammolarga noodatiy yondashuvlar</i>	<i>5</i>	
	<i>Energiya tejamkorligi va xavfsizlik</i>	<i>5</i>	
4.	Hujjatlashtirish va taqdimot	20	
	<i>Loyiha hujjatlari va texnik tavsifi</i>	<i>10</i>	
	<i>Model yaratish jarayonini bayon etish</i>	<i>5</i>	
	<i>Prezentatsiyaning aniqligi va mazmuniyligi</i>	<i>5</i>	
JAMI		100	